



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 7-8 (926–927)
8-aprel, juma
2022-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
mardan chiqqa
boshlagan

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI YANGI SAHIFA

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

“Inson qadri uchun” shiori bugun yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh mezoniga aylandi. Ko‘ngilochar tadbirlardan tortib, jamiyatning ijtimoiy va siyo-siy qatlamlarini yangi bosqichga olib chiqishni mo‘ljallayotgan loyi-halargacha shu ezgu g‘oya asosida hayotga tatbiq etilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mironovich Mirziyoyev 2022-yil 18-mart kuni sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba tashkil qilingan mazkur muloqotda sohani yanada rivojlan-tirish, tizimli muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari muhokama qilindi, tibbiyot xodimlarining takliflari eshitildi.

Tibbiyot xodimlari va aholidan kelib tushgan 25 mingdan ortiq murojaat va takliflar tahlil qilinib, oylar kesimida qilinadigan ishlar rejasi tuzilib, vazifalar aniq belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari alohida far-moyish imzolab, 7 ta yo‘nalishdagi 50 ta tadbir va ularning har biri uchun mas’ullar belgilanganini ta’kidladi. Shuningdek, shifokorlarning malaka toifasini olish muddatlari qayta ko‘rib chiqilib, toifasiz xodimlarga talab etiladigan ish stajlari 5 yildan 3 yilga, birinchi toifaga – 7 yildan 5 yilga, olyi toifaga – 10 yildan 7 yilga qisqarishini bildirdi. Shu-

ningdek, o‘zi boshchiligidagi joylarga chiqib, yangi davolash amaliyotlarini o‘tkazish, yuqori texnologik operatsiyalarni hududlarda joriy etish haqida markazlar rahbarlarini qat’iy ogohlantirdi. Viloyat va tuman mutaxassislarini bunga o‘rgatmasa, fuqarolarning sarson bo‘lib, poytaxtga kelaverishini aytib o‘tdi.

Ochiq muloqotda aprel oyida olis hududlarda maxsus konteynerlardan foydalangan holda 1 ming 700 ta mahalla tibbiyot punktini tashkil etish vazifasi qo‘yildi. Yil yakuniga qadar esa jami 400 ta mahalla uchun bunday punktlar ochilishi ta’mil-nishini, 2022-yil investitsiya dasturi doirasida tibbiyot muassasalarini qu-rish va ta’mirlash ishlariga budgetdan 1,2 trillion so‘m ajratilishi aytildi.

Men quvontirgan yangilikning yana biri, Tibbiyot oliygochlari davlat grantlari oshirilishi haqidagi gap bo‘ldi. Ya’ni, O‘zbekistonda tibbiyot muassasalarini malakali kadrlar bilan ta’minalash bo‘yicha yangi tizim joriy etish maqsadida tibbiyot oliygochlari davlat grantlari asosida qabul kvotalari oshiriladi.

2022-2023-o‘quv yilidan tibbiyot oliygochlari davlat grantlari asosida qabul kvotalari, hududlarda shifokorlarga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojdan kelib chiqib, maqsadli oshirib boriladi. Ftiziatriya, gematologiya, nefrologiya, pulmonologiya, psixiatriya, shoshilinch tibbiy yordam, laboratoriya ishi, yuqumli kasalliklar kabi 15 ta tor sohadagi mutaxassislik bo‘yicha magistraturaga davlat grantlari 4 baravarga oshiriladi. 11 ta tibbiyot oliygohida olti oylik ixtisoslashgan kurslar tashkil etilib, har yili 500 nafardan oilaviy shifokorni

hududlardagi eng zarur tor soha mutaxassisligi bo‘yicha maqsadli o‘qitish dasturi amalga oshiriladi.

Endi tibbiyot oliygochlarning magistrantlarga va bakalavriatning 5-6-kurslarida o‘qiyotgan talabalarga yo’llanma asosida birlamchi va tez yordam tizimida shifokor bo‘lib ish-lashga ruxsat beriladi. Bu nima degani? Har yili 7 mingga yaqin talaba munosib ish haqi olib, ta’limni amaliyot bilan birga olib borish imkoniga ega bo‘ladi. Amaliyot davrida yo‘nalishimi o‘zgartirishga qaror qilgan talabalarga, o‘qishni boshqa turdosh mutaxassisliklar bo‘yicha davom ettirishga ruxsat berilishi iqtorini meditsinaning boshqa yo‘nalishida ko‘rayotgan tala-ba uchun katta imkoniyatdir.

Shuningdek, yirik va nufuzli xususiy shifoxonalarda tibbiyot oliygochlarning klinik bazalari tashkil etilib, ularga ham shifokor va ham-shiralalar malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashga ruxsat berilishi fuqaroning manfaati yo‘lidagi yangi qadam desak, adashmagan bo‘lamiz.

Xorijdan nufuzli mutaxassislar jalg qilinib, 11 ta tibbiyot oliygohida malaka oshirish va qayta tayyor-lash fakultetlari, 23 ta ixtisoslashgan markazlarda maxsus o‘quv kurslari tashkil etilishi ham yurtimizda sog‘liqni saqlash tizimidagi muhim bosqich bo‘lishiga shubha yo‘q.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari boshchiligidagi o‘tkazilgan ochiq muloqot ham “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida yurtimiz sog‘liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish va xalqimizga tibbiy xizmat ko‘rsatish samaradorligi va sifatini oshirishga qaratilgan katta qadam bo‘ldi.

ASSALOM, NAVRO‘Z – YANGILANISH, MEHR-OQIBAT VA QADR-QIMMAT AYYOMI!



Navro‘z mehr-oqibat, ezgulik va farovonlik, pok niyatlar timsolidir. Ushbu ayyom milliy o‘zligimiz, asrlar mobaynida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an’analarmiz, ajdodlarimizning ezgu amallari, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan. Shu sababli ham Navro‘zi olamni yurtimizda yashayotgan har bir millat va elat vakillari katta shod-u xurramlik, o‘zgacha shukuh, ishtyoq bilan nishonlaydi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, inson qadri va sha’nini ulug‘lashda Navro‘z ayyomi alohida o‘rin tutadi. Navro‘zi olam bizni tabiat farzandi bo‘lib, borliq bilan uyg‘unlikda, Vatan tuprog‘ini, ona zamindagi har bir giyohni ko‘zimizga to‘tiyo qilib yashashga, atrofimizdag‘ insonlarga e’tiborli bo‘lishga, har bir tirik mavjudotni qadrashga o‘rgatadi.

Bu yil ham ezgulik va yangilanish ayyomi Navro‘zi olam yurtimizda ko‘tarinki ruhda qarshi olindi. Boy tariximiz, betakror an’ana va qadriyatlarimizni tarannum etuvchi, oqibat, muruvvat tuyg‘ularini yashartiruvchi ayyom yurtimizning boshqa jabhalari, tashkilotlari, ijtimoiy muhitlari qatorida Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ham o‘zgacha kayfiyatda kutib olindi. Jumladan, 2022-yil 27-mart kuni Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Talabalar turar joyida “Assalom, Navro‘z – yangilanish, mehr-oqibat va qadr-qimmat ayyomi!” shiori ostida talabalar ishtirokida Navro‘z sayli tashkil etildi. Milliylikni bo‘y-basti bilan o‘zida namoyon etgan

mazkur tadbirda institut rahbariyati, professor-o‘qituvchilar va xodimlari hamda 700 ga yaqin talaba-yoshlar ishtirok etdilar.

Tadbirni institut rahbariyati vakilari kirish so‘zi bilan oolib berdilar. So‘z olganlar Navro‘z tarixiga nazar solar ekan, umumxalq bayramining o‘ziga xosligi, xalqimiz hayotida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritib, tadbir ishtirokchilarini bayram bilan qutladilar.

Bayram tadbiri doirasida talabalar tomonidan tayyorlangan konsert dasturi, milliy raqs va folklor chiqishlari, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi sahna ko‘rinishlari, badiiy kompozitsiyalar, turli sahna ko‘rinishlar, hunarmandchilik va milliy taomlar ko‘rgazmalari, intellektual o‘yinlar va milliy sport turlari bo‘yicha musobaqlar o‘tkazildi. Shu bilan birga, ko‘klam taomlari tayyorlanib, dasturxon bezatildi. Talabalar o‘rtasida musobaqalar tashkil etildi. Sayl ishtirokchilar o‘z tarixiga ega taom va urf-odatlardan bahramand bo‘lishdi.

Ishtirokchilarning milliy urf-odatlarimizni, an’analarmizni aks ettiruvchi chiqishlari barchaga manzur bo‘ldi va tadbir davomida yangragan go‘zal kuy-ko‘shiqlar, milliylikni aks ettirgan chiqishlar ishtirokchilarga yanada ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

Tadbir doirasida “Eng yaxshi xona”, “Eng yaxshi pazanda”, “Eng yaxshi ijro” nominatsiyalarida o‘tkazilgan tanlovlardaga munosib nomzodlar hakamlar hay’ati tomonidan e’tirof etildi.

“Eng yaxshi xona” nominatsiyasi da 1-TTJ o‘rtasida 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti 2-bosqich talabalari Gafurova Sitora, Ruzikulova Dilafruz, Turgunova Zarnigor; 2-TTJ o‘rtasida esa 2-Pediatriya va tibbiy-biologiya fakulteti 2-bosqich talabalari Ermuhamedova Zebo, Abdumalikova Saodat, Sobirova Sevinchlar g‘oliblikni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, “Eng yaxshi pazanda” nominatsiyasida

1-TTJ qizlari ichida 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti 110-1P-guruhi talabasi Aldenova Nulyufar va 2-TTJ qizlari orasidan esa 2-Pediatriya va tibbiy-biologiya fakulteti 209-2P-guruhi talabasi Zokirova Niginaning chaqqonligi va qo‘li shirinligi hakamlar va tadbir ishtirokchilariga manzur bo‘ldi.

“Eng yaxshi ijro” nominatsiyasi da 1-TTJ o‘rtasida 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti 217-1P-guruhi talabasi Urtibayeva Bahorgul; 2-TTJ o‘rtasida esa 2-Pediatriya va tibbiy-biologiya fakulteti 122-2P-guruhi talabasi Rayitova Sevinchning ijrolari barchanining olqishiga sazovor bo‘ldi va bir ovozdan g‘olib deb topildi.

Ko‘tarinki ruhda o‘tgan bayram tadbiri talabalarining darsdan bo‘sh vaqtlanini mazmunli hamda ko‘ngilli o‘tkazish, ularning ma‘naviy va madaniy saviyasini oshirish, san’atga bo‘lgan ishtiyok va qiziqishlarini yuksaltirish, shuningdek, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarimizning mohiyatini o‘rganishga, hurmatining oshishiga xizmat qiladi.

Inson qadri tobora ulug‘lanayotgan yurtimizda bu yilgi Navro‘zi olam tarovati Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ham o‘zgacha kayfiyatda kutib olindi. Eng ulug‘ va aziz bayram jamiyatimizning har bir jabhasiga cheksiz quvonch, buguniga fayz, ertangi kuniga ishonch olib kirib, barchani tinchlikday bebafo ne’matning qadriga yetib, buyuk maqsadlar sari undamoqda. Hayotimizda kechayotgan mislsiz o‘zgarishlar, go‘yo Navro‘zi olamning pok qadami va ezgu nafasiga mushtarak uyg‘unlik kasb etmoqda.

M. AHMEDOVA



TALABALAR UCHUN MEHNAT YARMARKASI

Biz Uchinchi renessansostonasida turibmiz. Bu esa kelajak va dunyo mamlakatlari oldida millardoshlarmizga katta mas'uliyat yuklaydi. Vatan taqdiriga daxldorlikni his qilgan har bir qalb egasi shu mas'uliyat sharafi bilan qadam tashlashi, nafas olishi kerak.

Talaba-yoshlar – jamiyatning eng faol va asosiy kuch bo'g'inidir. Oliy gohdagi ta'lim bosqichida, ayniqsa, insonning katta hayot safari uchun o'zi bilan yo'lga olib chiqadigan maqsad-muddaolari aniqroq belgilanadi. Ularning talabalikdagi har bir daqiqasi oltinga teng. Unumli foydalanishga ilhomlantirish, sharoit yaratib berish jamiyatning yutug'i. Shu maqsadda yurtimizda ta'lim sohasida ham ertamiz egalarining vaqt va imkoniyatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga qaratilgan qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda, hayotga tatbiq etilmoqda. Natijalar esa asl samarasini berishda davom etaveradi.

Yoshlar kelajak egalari. Bugun ularga qaratilayotgan e'tibor – kelajakka tikilayotgan sarmoya. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidajoriy yil 4-mart sanasida "Talabalarining ishlab, daromad topishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish" mavzusida videoselektor yig'ilishi tashkil etilgan edi. Yig'ilish davomida talabalar ishlashi mumkin bo'lgan 105 ming vakant ish o'rinnari mavjudligi, ishlashga ehtiyoji bor talabalarga yordam berib, ular bandligini ta'minlash shartligi ta'kidlangan edi.

Davlat rahbarining topshirig'iga muvofiq, rektorlar, talabalar o'rtasida suhbat va so'rovnomalar o'tkazildi.

Ishlashga ehtiyoji bor talabalarga yordam berib, ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida Toshkent pediatriya tibbiyot institutiida joriy yil 26-mart kuni "Talabalar yarmarkasi – talabalar uchun tanlov imkoniyati" ramziy nomi ostida bo'sh ish o'rinnari mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Mazkur mehnat yarmarkasiga Toshkent shahridagi davlat va nodavlat tibbiyot muassasa-

lari, dorixonalar, ilmiy grantlar egasi bo'lgan ish beruvchi korxona, idora va tashkilotlar o'zidagi mavjud bo'sh (vakant) hamda kvota ish o'rinnari bilan ishtirok etdi.

Mehnat yarmarkasida davlat va xususiy tashkilotlar tomonidan tibbiyotning turli yo'naliishlari, xususan, tez tibbiy yordam, davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar faoliyati, xizmat ko'rsatish bo'yicha ishga tushadigan loyihihalar hisobiga yaratilgan ish o'rinnari bo'yicha tayyorlangan tarqatma materiallar, tashkil etilgan ma'lumotlar burchaklari orqali tashrif buyuruvchilar o'zlarining ehtiyojlar doirasida savollariiga javoblar oldi.

Jumladan, 304 nafar institutning ishlashga ehtiyoji bor talaba-yoshlar o'zlariga mos bo'lgan ish o'rinnari bilan tanishdi. Va shu kunning o'zida ishlashga ehtiyoji bor, band bo'lman 110 nafar (79 nafar qiz va 31 nafar yigit) talabaga ishga joylashishlari uchun yo'llanma berildi.

Yarmarkaga tashrif buyurgan 194 nafar talaba-yoshlar esa mutasad-dilardan kasb-hunarga o'qish imkoniyatlari, jamoat ishlariga qatnashish ishlari to'g'risida o'zlarini qiziqtirgan savollarga tegishli ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar bo'yicha tushuntirish hamda huquqiy maslahatlar oldi.

Sal avvalroq, 18-mart sanasida Davlatimiz rahbarining tibbiyot xodimlari bilan o'tkazgan ochiq muloqotida magistrantlarga va bakalavriatning 5-6-kurslarida o'qiyotgan talabalarga yo'llanma asosida birlamchi va tez yordam tizimida shifokor bo'lib ishslashga ruxsat berilishini bildirgan edi. Bu imkoniyat ham tibbiyot oliygohi talabalari faoliyatining yangi dovon sari dadil qadamida o'zlariga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Tibbiyot sohasida amaliyot va nazariy bilimning birga olib borilishi talabaning o'zlashtirgan bilimini yanada mustahkamroq tafakkur va ongiga muhrashiga katta yordam beradi. Har qanday nazariya amaliyot bilan mustahkamlanishini asrlar davomida



donishmand ajdodlarimiz tasdiqlab kelgan. Demak, yurtimizda kechayotgan, olib borilayotgan islohotlarning yana bir bosqichi – talabalarining ish bilan ta'minlanishiga qaratilgani bejiz emas. Darsda ustozlari tomonidan tanishtirilgan faoliyatni ish o'rnida amaliy bajarishi talabaning kelajakda yetuk shifokor bo'lishini kafolatlaydi.

Ta'kidlash kerakki, bu kabi yarmarkalar talabalarining ijodiy va intellektual salohiyatini amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, oliy ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, talabalarining oliy ta'lim muassasalarida egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda tadbiq qilishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Har qaysi kasb egasi o'ziga yoqqan muhitda, o'ziga manzur faoliyat bilan shug'ullansagina ishida unum, ko'ngliga xotirjamlik, atrofidagilarga hurmat tuyg'ulari bo'ladi. Ish o'ringa talabgorlarning ko'pligi, kadrlar orasida raqobatning bo'lishi sifat uchun xizmat qiladi. Mehnat yarmarkasi talabalarga katta faoliyat oldidan o'zlarini ko'rsatishlari uchun ham maydon taklif etmoqda.

Vatan sog'lom va barkamol kelajakni ham ma'naviyati, ham tani sog'lom farzandlari, fuqarolari bilan birga barpo etadi. Zero, mammakatimizda "Yangi O'zbekiston"ni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azm-u shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

A. HU'DAYBERDIYEV

NEFROLOGIYA BO‘YICHA XALQARO ANJUMAN

Ilm-fan, texnika rivojlanishga yuz tutgan sari havo va tuproq tarkibi ham “boyib”, inson salomatligiga ta’sir etuvchi omillar sanog‘i ortib boryapti. Natijada kasalliklar turi, belgisi, darajasida ham o‘zgarish va o‘sishda davom etyapti.

Suvning ifloslanishi buyrak, oshqozon-ichak xastaliklariga, atmosferadagi radiatsiya, oziq-ovqat mahsulotlarda kimyoviy vositalarning ko‘pligi onkologik, noto‘g‘ri turmush tarzi qon-tomir, yurak, endokrin, asab kasalliklarga sabab bo‘lmoqda. Demak, boshqa sohalar qatorida XXI asrning salomatlik posbonlari oldida ham mas’uliyatli, sharaflı sinov hamda vazifalar ko‘ndalang turibdi.

Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantasiysi ilmiy-amaliy tibbiyat markazi Toshkent pediatriya tibbiyat instituti bilan hamkorlikda “Butunjahon buyrak kuni – 2022” ga bag‘ishlangan “Sog‘lom buyraklar – sog‘lom hayot” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib

o‘tdi. Konferensiya 2022-yil 25-mart kuni kunduzgi va sirtqi formatda (gibrild format) tashkil qilinib, u nefrologiya, gemodializ va buyrak transplantatsiyasi sohasidagi ilmiy yutuqlar va innovatsion jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi masalalari bo‘yicha ilmiy va amaliy tajriba, g‘oyalar, fikrlar almashishni nazarda tutdi.

Tashkiliy qo‘mita raisi Tibbiyot fanlari doktori, professor, Respublika nefrologiya va buyrak transplantasiysi ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyat markaziga direktori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati a‘zosi, Toshkent pediatriya tibbiyat institute rektori Daminov Botir Turgunpulatovich bo‘lgan mazkur konferensiya da nefrologiya, gemodializ va buyrak transplantasiysi sohasidagi yetakchi mutaxassislar, shuningdek, dunyoning yetakchi xorijiy muassasalarini mutaxassislar ishtirok etdilar.

Konferensiyaning asosiy yo‘nalishlari Asosiy nefrologiya masalalari:

patofiziologiya, klinika, buyrak kasalliklarini tashxislash va davolashning zamonaviy jihatlari; Buyrak kasalligi bo‘lgan bemorlarga nefrologik yordamning oldini olish va tashkil etishning zamonaviy jihatlari; Tug‘ma nefropati; Gemodializda innovatsion texnologiyalar; Diyaliz va buyrak transplantatsiyasining dolzarb masalalari; O‘zbekistonda nefrologiya va gemodializ xizmati holati kabilar etib belgilandi. Konferensiya doirasida respublika bo‘ylab nefrologlarning asosiy mutaxassislar ishtirokida yig‘ilish; Yosh olimlar tanlovi; Farmatsevtika kompaniyalari va tibbiy asbob-uskunalar mahsulotlari ko‘rgazmasi ham bo‘lib o‘tdi.

Konferensiya negzini tashkil qilgan tajriba almashish, fikr-mulohazalar bilan o‘rtoqlashish, ilmdagi yangiliklardan bir-birini bahramand etish, meditsina sohasi ichidagi olim va tadqiqotchilarning, shifokorlarning faoliyatida yangi yutuqlarni boshlab berishi shubhasiz.

H.ABIDOV

QASHQADARYODA SOG‘LOMLASHTIRISH AKSIYASIDA ISHTIROK ETDI

Barchamizga ma’lum, sal avvalroq O‘zbekiston tarixida birinchi marta kuzatilgan voqeа – Davlat rahbarining tibbiyat xodimlari bilan ochiq muloqoti bo‘lib o‘tdi. Ochiq muloqotda shu vaqtgacha o‘rganilgan muammolar, kelib tushgan murojaatlardan sohaga oid qator reja va vazifalar belgilab olinib, ijro va nati-jani Prezident shaxsan o‘zi nazoratga olishini ta’kidlagandi. Yo‘l xaritasida qayd etilgan ishlarning amaliy nati-jalarini ko‘rish uchun ko‘p vaqt kerak bo‘lmadi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi tashabbusi bilan, ochiq muloqotda belgilab

olingan 7 ta muhim yo‘nalishdagi vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan Qashqadaryo viloyatida sog‘lomlash-tirish aksiyasi e’lon qilindi. Mazkur tadbirda respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyat markazlari rahbarlari va shifokorlari, shu jumladan Toshkent pediatriya tibbiyat instituti yetakchi professor-o‘qituvchilari ham faol ishtirok etdilar.

Toshkent pediatriya tibbiyat instituting terapevt, kardiolog, nefrolog, lor, nevropatolog, pediatr, xirurg, okulist, travmatolog mutaxassisligidagi jami 30 ga yaqin professor-o‘qituvchilari Qashqadaryoga safarbar etilib oilaviy poliklinikalardagi laborotoriya xodimlarining toifasi, malaka daramasini, laborotoriya anjomlarining yaroqligini tekshiruvdan o‘tkazdilar. Poliklinikalarda faoliyat olib borayotgan shifokor, hamshira va tibbiyat xodimlariga seminar treninglar o‘tkazib, sohadagi yangiliklar bilan o‘rtoqlashdi va kerakli maslahatlarini berib o‘tdilar.

Mutaxassislar tomonidan hozirgi vaqtgacha 1000 ga yaqin bemor tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi, kerakli tavsiyalar berildi hamda davo muolaja turlari belgilandi. Bundan tashqari jarrohlik yo‘nalishi bo‘yicha 50 dan ortiq master-klasslar tashkil etildi va bemorlarda har xil turdagini mini-invaziv operatsiyalar o‘tkazildi. Xatlov orqali bemorlarni ko‘rikdan o‘tkazib, tavsiyalar berishdi.

Shu jumladan, Toshkent pediatriya tibbiyat instituti rektori B.T.Daminov boshchiligidagi institutning bir guruh professor-o‘qituvchilari va malakali xodimlari Qashqadaryoda aholini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib, yuqori texnologik operatsiyalarni tashkil etgan holda konsultatsiyalarni amalga oshirib qaytdilar.

Vatan katta uyimiz. Unda har birimizning o‘z o‘rnimiz, vazifamiz bor. Katta uy boshlig‘ining e’tibori va nazorati esa sohada yangiliklar, muvafqaqiyatlar yaratishi tabiiy.

H.ABIDOV



ENG YAXSHI ILMIY TADQIQOTCHI

Sevinch Toshkent viloyati Bekobod tumanida dunyoga keldi. Uning fikricha “Ijod sohasi o‘zi bir gulshan hisoblanadi. Ushbu gulshandan gul termoq hammaga ham nasib etavermaydi”. Sevinchning o‘quvchilik davri ijodga hamnafas o‘tgan. 5-sinfida she’r yozishga qiziqqa boshladi. Uning ilk yozgan she’ri “Qalam bilan suhbat” va “Maktabim” deb nomlandi. 2015-yili sinfida “Iste’dod” nomli ko‘rik-tanlov bo‘lib o‘tadi. Unda Sevinch she’riyat sohasida sinf bo‘yicha faxrli birinchi o‘rinni oldi. O‘sha tanlovdan oldin dasasi, agar birinchi o‘rinni olsang, senga notbuk sovg‘a qilaman, – deb aytgandilar. Sevinchning dastlabki she’riyat sohasidagi yutug‘idan so‘ng dadasi va‘dasini bajardi. O‘sha paytda qizaloq uchun bu juda ham katta rag‘bat edi. Sevinch o‘zida yo‘q xursand bo‘lgan. Bundanda katta yutuqlarga erishsam, dadam rag‘batlantirib turadilar, degan orzu keyingi marralarga erishishiga xizmat qilganligi rost. Shundan keyin Sevinch maktab bo‘yicha ham asta-asta taniqli bo‘la boshladi. Qizchadagi iqtidorni ko‘rgan ustozlar she’riyat bo‘yicha turli xil tadbirlar, tanlovlarga uni jalg‘eta boshlashdi. Sevinch esa yuqori o‘rinlarni egallab kelaverdi. 2018-yili maktabdagisi Zulfiya tavalludiga bag‘ishlangan ko‘rik tanlovdan u faxrli 2-o‘rinni egalladi.

Assalom, tibbiyot!

Sevinchning tibbiyotga qiziqishiga sabab nimadan boshlanganini ba‘zan o‘zi ham o‘ylab qoladi. Onajoni uni oq xalatda ko‘rishini juda xohlardi. Yana bu sohani tanlashda otasining orzusi, ya‘ni qizining shifokor bo‘lishini istagani ham yordam berdi. Shuning uchun ham u kimyo-biologiya fanlarini chuqur o‘rgatildigan litseyni tanladi. Ukol qilishni qisqa tibbiyot kursida o‘qigan bo‘lsa-da, venaga ukol qilishga qo‘rqardi. Litsey yotoqxonasida yarim kechada xonadagi qizga shifokor yozib bergen dorini venaga yuborish kerak bo‘lib qoldi. Sevinch bu haqda shunday deydi: “Bir kuni xonadoshimonning mazasi bo‘lmay qoldi, u paytda yaqin atrofdan birorta shifokor chaqirishning iloji bo‘lma-gandi. Shunda tibbiyot sohasida o‘qiganimni bilgan kursdoshlar mendan ukol qilishimni so‘rashdi. O‘shanda venaga

ukol qilishim juda ham qiyindek ko‘rindi menga. Yana qondan qo‘rqardim. Ammo o‘zimni qo‘lga oldim, tomirga tushganimdagagi hissiyot juda ham bosh-qacha bo‘lgandi”.

Tibbiyotga qiziqishi uni ToshPTI tomon yetakladi, chunki Sevinch bolalar shifokori bo‘lishni orzu qilar edi.

Sevinch o‘z bo‘lajak kasbini sevar, lekin qondan qo‘rqish hissi hali-hali bor edi. O‘zidagi bu qo‘rquvni u birinchi kursning birinchi semestrida, tibbiyot kasbiga kirish fanida ustozdan iltimos qilib, oftalmologiya bo‘limida operatsiya jarayoniga kirib yengdi.

Maktabdagisi ustozlari, bobosi uning ijodiy qobiliyatining namoyon bo‘lishiga zamin yaratgan, o‘z hissalarini qo‘shgan bo‘lsalar, ota-onasining orzusi va tibbiyot kursi ustozlarining mehnati, litsey va institut o‘qituvchilarining saboqlari uning tibbiyotga mehrini uyg‘otdi va qobiliyatni rivojlantirishga sabab bo‘ldi.

O‘sha operatsiya davomida Sevinch oyog‘ida bardam turdi. Rosti, u hatto ustozlarga qo‘shilib operatsiya qilgisi kelib ketdi.

Meditina sohasi qanchalik kerakligini va ahamiyatliliginu u qadrli insonlari – qarindosh, yaqinlarining mazalari bo‘lmay qolganida tushunib yetdi. O‘sha paytda qisman u bergen maslahatlar tufayli ularning dillari shod bo‘lgan, dardlardan holi bo‘lgan. Sevinchning harakatlari tufayli oyisining mazalari bo‘lmay qolganda operatsiya yo‘li bilan bitta buyraklarini olib tashlashga rozi bo‘lganlar. Aks holda bu yomon oqibatga olib kelar edi.

– Ajyon, ko‘rdingizmi tibbiyot sohasi hayotda qanchalik katta ahamiyatiga ega! – degan u sog‘aygan oyisiga. Bungungi kunda u malakali shifokor bo‘lish istagi bilan yashamoqda.

Ustozlar

Gulistonda o‘qigan paytlarida Sevinch Hasan aka Abduvohidov ismili shoirga shogird tushgan. Ustoz oldiga birinchi marta borganida u kishi Sevinchning she’rlarini o‘qib “Yuragida o‘ti bor qiz ekansan, senda ijodkorlik ruhi bor. Lekin bu she’rlaring maromonga yetmagan”, – degan edi. Sevinch she’rlarini sayqallasa-da, ustoz uning kamchiliginini topar, bu hol bir necha bor



takrorlandi. Ustoziga ro‘baro kelganda ba‘zan ko‘ziga yosh kelardi.

Ammo u yana bir necha bor she’rlarning ustidan ishlab kelgach, ustoz rag‘batiga sazovor bo‘ldi.

Litseyda o‘qib yurganida litsey radiosida faol ishtirok etdi, so‘ng esa bora-bora uning ijod namunalari gazetalarda ham yoritila boshlanadi. Ijod namunalari dastlab viloyat, so‘ng Respublikada e‘lon qilindi. Bu ishda ham ustozlar ko‘magi asqotdi. Bu orada Sevinchni Sirdaryo viloyati radiosи va televideniyesiga ham musohaba uchun taklif etishdi. Musobahan oldin tarix fani o‘qituvchisi undagi tortinchoqlik hissini yengib, o‘z fikrini qo‘rqmay bayon etishga yordam berdi. Yana shu ustoz Sevinchga har juma kuni bittadan yangi she’r yozib kelishni yoki rasm chizib kelishni tayinlardi. Shunday qilib u o‘zida rassomchilikka qiziqishini ham rivojlantirdi.

Hozirgi kunga qadar Sevinch Said-murodova juda ko‘p tanlov, tadbir, forum, konferensiyalarda qatnashdi. Ammo ijod sohasini ham tark etmadidi. Uning kelajakdagisi maqsadi malakali nevropatolog bo‘lish va shu bilan bir qatorda ijodiy yutuqlarga erishish.

Sevinch 2022-yilning 27-fevralda bo‘lib o‘tgan “Eng yaxshi ilmiy tadqiqotchi” ilmiy-amaliy konferensiysiда faxrli o‘rinni egallab, “Eng yaxshi ilmiy tadqiqotchi 2022” ko‘krak nishoni, esdalik guvohnomasi va serfitikatini qo‘lga kiritdi. Ammo bu bilan uning maqsadlari kamaydi degani emas. Bu keyingi yuksak marralalar tomon qo‘yligan dastlabki qadamlaridan biri.

Kavsar TURDIYEVA

UCH BORA O'ZBEKISTON CHEMPIONI



Bir necha bor institut tadbirdilarida raqs tushgan talabalar orasida ko'zi chaqnab turgan, oppoqqina qiz barcha raqqosalar ichida ajralib turganini kuzatdim. Kuni kecha institutda sprotchilar haqida gap ketganda jismoniy kafedra o'qituvchilaridan biri:

– Institutimizda karate bo'yicha Xatto O'zbekiston championi ham bor, – deb qoldi.

– Iya, kim ekan u qiz, – deb qiziqsam, 2-bosqich talabasi Gulshakar Jo'raveva ekan. Nima uchun dir aynan shu qiz karate bo'yicha O'zbekiston championi bo'lganiga ishonqiramay, o'zi bilan suhbatlash-gim keldi.

Gulshakar xonamga tabassum bilan salom berib kirib keldi.

– Va alaykum assalom, karatechi champion, – dedim men ham va sport sahasidagi muvaffaqiyatlari, sportga qiziqishi qanday rivojlangani haqida so'radim.

– Karatega qiziqishim avvalo o'zimni himoya qila olishim, shuningdek, bu sport turi yoqqani uchun qatnasha boshladim. Oldin karate seksiyasining mashg'ulotlari maktabimiz zalida olib borilar edi. Birinchi borganimdayoq ular menga juda yoqib qolgan edi. Mashg'ulotlarga berilib yugurdim, boshqa mashqlarni ham bajardim, sinfdoshlarim esa ochiq eshikdan mening mashqlarimni tomosha qilib turishdi. Qishloq sharoitida

qiz bolaning karatega qatnashishi baribir g'ayritabiyy edi. Mashg'ulot tugagandan keyin bir hafta oyog'im og'rigan. Jismoniy mashqdan keyin muskullar qisqarishi, bo'shashishi qiyin bo'ladi. Ammo og'riqlar mening xursandligimni ketkaza olmadi, o'shanda esimda birinchi musobaqamda to'rtta qiz bilan sparingga tushganman, ammo hammasiga yutqazganman, ilk g'alabaga esa olti oylardan so'ng erishdim va bronza medaliga sazovor bo'ldim. Bu medal men uchun nihoyatda qadrli. Men uni 9 yoshimda olgaman. Aynan o'sha sovrindorligim mening karate bo'yicha mashg'ulot va musobaqalarni davom ettirishimga sabab bo'lgan. Chunki ko'p qatnashchilar medalsiz qaytib kelishgan.

Ammo mashg'ulotlarni davom ettirishimda ustozlarim Muhriddin Musulmonov va Fayzali Aynovlarning ham katta hissasi bo'lgan. Kuchli qiziqishim tufayli ertalab, kechqurun zalga borardim. Ertalab borib kelib, uydagi ishlarni qilardim-da, keyin soat 16:00 da yana zalga borish uchun ko'chada ayamning ishdan kelishlarini poylab o'tirardim. Uyda boshqa hech kim bo'lmasdi, zaldan qaytgunimcha juda kech bo'lib ketardi, qorong'uga qolib ketardim. Taksidan tushib uyga borguncha bo'lgan masofa ham sal uzoqroq bo'lardi. Shu sababli ertaroq uyga yetib borish uchun, yuqori ko'chadagi qo'shnimizning hovlisiga kirib, devordan oshib tushardim. Qo'shnimiz ham menga qiziqib, bolalarini karate mashg'ulotiga bergan edi. Ular menga qo'l chiroq tutib turishar edi. Bir kuni zalga borsam, qo'shnimizning o'g'li Farrux devordan oshib tushishimni aytib beribdi. Shunda murabbiy sen rostanam shunaqa qilasanmi, deb so'radilar, keyin unda ertaroq kelgin, mashg'ulotni ertaroq boshlaymiz, uygayam

ketishinga ertaroq javob beraman, deganlar. Murabbiylarim meni har qanaqa vaziyatda tushunar va qo'llab-quvvatlar edi.

Yana bir shunday voqeа ro'y bergan. Uydagilar kichkinligimda mening mashg'ulotlarimga xayrixoh bo'lsalar, tibbiyot kollejida tahsil olgan paytimda kirish imtihonlarimga tayyorlanishim kerakligini ta'kidlab, zalga borishimni xohlamaganlar. Shuning uchun to'lov pullarini ham bermay qo'yishgan. Men esa qiziqshim tufayli yo'lkiramdan orttirib yoki tushlik uchun beriladigan pullarni iqtisod qilib, to'lovni amalga oshirar edim.

Bir kuni murabbiy hammamizga kimda-kim bir turdagи stoykada yarim soat o'tirsa, mashg'ulotlarining bir oylik to'lovlaridan kechaman, dedilar. Meni bu gap qiziqtirib qo'ysi. Chunki to'lovlarini to'lashga ancha qiynalayotgan edim. Shunday qilib, ushbu stoykada qo'llarimni ko'tarib yarim soat emas bir soat turdim. Murabbiy "tur" deyishiga qaramay o'tiraverdim. Shunday qilib bir soat o'tirganidan keyin oyoqlarim qaltirab, yiqilib qoldim. Murabbiyim yil davomida mendan oylik to'lov olmagan edilar. Men uchun bu katta yordam bo'lgan.

– Gulshakar Jo'raveva 2015-, 2016-, 2017-yillarda O'zbekiston championi nomiga sazovor bo'ldi.

– Albatta, bunday nom olish hamma uchun faxr, – deydi u, – ayniqsa poyezddan tushganda karnay-surnay sadolari bilan sizni kutib olishlari yoqimli his uyg'otadi.

Hozirgi kunda esa Gulshakar institut nomini himoya qilib, turli musobaqalarda faol qatnashmoqda. Ham bo'lajak shifokorlik ta'limiga, ham sportga o'zini bag'ishlagan bu champion qizning bo'sh vaqtı mazmunli o'tmoqda.

Kavsar TURDIYEVA

SPORT BILAN BIRGA TASHLAYMAN ODIM

Sport bilan birga odim tashlash insonda salomatlik, mehnatsevarlik, intizomililik va sabr kabi fazilatlarni shakllantiradi. Humoyun Toshmuhamedovda ham shunday bo‘lgan.

Humoyun “Armwrestling” sport turi bilan shug‘ullanishni 2010-yildan, 13 yoshidan boshlagan. Yoshligidan sportga qiziqishiga sabab dadalarining sportga ishtiyoqi tufayli paydo bo‘lgan deb o‘yaydi. U kishi juda vatanparvar inson bo‘lib, o‘zbek sportchilarini champion bo‘lganlarini televizor orqali tomosha qilib, shohsupaga chiqib O‘zbekiston bayrog‘ini yuqoriga ko‘tarishganda ko‘zlariga yosh olar edi. Humoyun esa bu holatni kuzatib sport bo‘yicha yaxshi natijalarga erishib, dadasini mammun qilib, ularning o‘zidan g‘ururlanib yurishlarini xohlardi. Bolakay 7-sinfga o‘tganida maktablariga yangi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi keladi. O‘z ishiga fidoiy bo‘lgan bu inson – G‘ayrat Islomqulov Humoyunning “Armwrestling” sportiga iqtidori borligini sezadi. Mashg‘ulotlar boshlanadi va Humoyun 2013-yilda respublika championatiga chiqadi va 1-o‘rinni egallaydi. Ammo 2014-yilda Latviyada bo‘lgan jahon championatida 4-o‘rinni egallagan va kuchli uchtalikga kira olmagani unga alam qilib, mashg‘ulotlarga kuchliroq kirishadi. 2018-yilda esa Antaliyada bo‘lib o‘tgan Osiyo championatida kumush medal sovrindori bo‘ladi. O‘sha yili yana Malaziyadagi Juhon championatida ham kumush medal sovrindori bo‘ladi. 2016-yilda Bolgariyada o‘tkazilgan Juhon championatida 4-o‘rinni egallaydi. Osiyoda esa o‘sha yili bronza medaliga sazovor bo‘ladi.

2016-yili Bolgariyada bo‘lib o‘tadigan musobaqaga tayyorgarlik davomida 70 kg dan 55 kg gacha vazn tashlaydi. Federatsiya musobaqaga bir hafta qolganda homiy yo‘qligi, championatga bormasligini aytganda kayfiyati tushib, vazn tashlashni to‘xtatib qo‘yadi. Uning ruhiyati tushganini ko‘rgan ota-onasi o‘z yonlaridan yo‘l harajatlarini qoplashadi. Ammo championatda vazni 57 chiqib yuqori 60 kg vazndagi raqib bilan



jangga tushishga majbur bo‘ladi. Shu sababli yaxshi natijaga erisha olmaydi, ammo endi asosiy kuchni o‘qishga sarflaydi.

Humoyun shu kungacha ilm va sport bo‘yicha erishgan muvaffaqiyatlari uchun, shu oilada tug‘ilgani uchun Allohma shukrlar deydi.

Musobaqalarda shug‘ullanib vazn tashlayotgan vaqt oralig‘ida ota-onasi uydagi barcha ishlardan ozod qilishgan. Parhez davrida o‘zlarini xohlagandek totli taomlarni emas, balki Humoyunga qo‘silib parhez ovqatlar iste’mol qilishgan, hatto bolasi bilan birga tamaddi qilmagan kunlari bo‘lgan. Onasi Humoyunning sport bilan shug‘illanishiga qarshilik qilgan, chunki o‘g‘lining azoblanib vazn tashlashini, og‘ir toshlar ko‘tarishini, jarohatlar olishini xohlamasdi. Uning sportdan charchab kelganini ko‘rib qiynalardi, musobaqalardan yutqazib tushkun bo‘lganida azoblanardi. Ular hamisha qo‘llab-quvvatlab kelganlari uchun u ota-onasiga, aka-singlisiga minnatdorchilik bildiradi.

Osiyo, jahon championatlaridan qaytganida mahallada, maktabda tantanalar bilan kutib olishardi, ota-onasini chaqirib rahmat aytishardi.

O‘shanda ota-onasining ham quvonchdan barcha charchoqlari chiqib ketardi.

Ammo Humoyunning yana bir orzusi bor edi – bu shifokor bo‘lish. To‘g‘risini aytsak, bu orzu eng avval onasida paydo bo‘lgan. Balki veterinar otasining jonzotlarni davolash jarayonlari ham bu sohaga qiziqtirgani ajab emas. U 2017-2018-yillari Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga hujjatlarini topshirgan. Ammo test sinovlarida ko‘rsatgan natijasi o‘qishga kirish baliga yetmay qolgan. 2018-yil ikki institutga topshiradi – Qirg‘iziston tibbiyot institutiga jamlagan bali yetgani uchun talabalikka qabul qilinadi, so‘ng Buxoro tibbiyot institutiga o‘qishni ko‘chirib, 3-kursdan o‘zi orzu qilgan bizning institutimizga o‘qishga kelgan.

Ammo Humoyun sport bilan shug‘ullanishni tashlab qo‘ygani yo‘q. 2022-yil yanvardan boshlab saralash o‘yinlarida muvaffaqiyatli qatnashib, Buxoroda o‘tkaziladigan O‘zbekiston championatiga yo‘llanma oldi. 15-mart kuni boshlanadigan championatda institut talabasi Humoyun Toshmuhamedovga omad tilab qolamiz.

TOJDOR VIRUS

*Yashar edik tinch va xotirjam,
Xursand edik hayotimizdan.
Birdan qilib hammani mulzam,
Balo keldi g'oyibdan, zimdan.*

*Ne baloki, bedavo bu dard,
Insonlarni qildi ko'p behol.
Ba'zilarni olib bo'g'zidan,
So'rolmay ham goldik hol-ahvol.*

*Motamsaro go'yoki turmush,
Ko'chalar bo'sh, qalblar tilindi.
Deysiz bu ro'yomi yoki tush,
Xuddi urush e'lom qilindi.*

*Qirg'in keldi, ko'p inson nobud,
Tobut bilan kuydirishdilar,
"Tojli virus" deya atashib,
Shifokorlar yugurushdilar.*

*La'nat senga, ey tojdar virus,
Insonlarni yenga olmaysan.
Qo'llaguvchi qodir Allohim,
Sinoating o'tkazolmaysan.*

*Tojdar virus, ketasan izesiz.
Yo'qolgaysan bir kuni beshak,
Ibn Sino avlodlarimiz,
Bizni kutar nurli kelajak.*

*E'zoza NODIROVA,
davolash ishi fakultetining
410-guruh talabasi*



NAVRO'Z

*O'lkamga xush kelding go'zal Navro'zim,
Sen poklik timsoli, sendir musaffo.
Asl qadriyatim ham rizq-u ro'zim,
Qalblarga, dillarga azizsan tanho.
Sen kelsang bu olam ertakka o'xshar;
Senla jilolanib yashaymiz biz ham,
Har inson qalbida ezgulik yashar.
Olam jonlanadi guyoki birdan.
Mitti qizaloqlar ul sochlariqa,
Mehr ila taqib olar jamalak.
Osmon musaffodir, esmoqda sabo,
Ko'zni quvnatadi rangdor kamalak.
Qozonlar boshida aytib yallalar,
Baxtdan yaraladi ajib tarona.
Hech yoddan chiqmaydi ushbu pallalar,
Bu bayram aslida, baxtdan nishona.*

*Guljahan MELIQUZIYEVA,
I pediatriya fakultetining
102-guruh talabasi*

*Bahor, kelding qalblarga ming zavqni solib,
Ochildi boychechak muzlarni yorib,
Har gulga qarasang ketarsan quvnab,
Daraxtlar turibdi chapaklar chalib.*

*Sovuq qahratonda ayoz bo'lakcha,
Ko'zni quvontirar mitti muz parcha,
Bahorim, o'zingsan yasharish fasli,
Bilasanmi seni kutganman qancha?*

*Bahor, kelding go'yo mo'jiza misol,
Quyosh ham nur sochar, charaqlar xushhol,
Jajji qizaloqning ko'ziga termul,
Qalbida quvonch-u ming orzu-xayol.*

*Bahor fasllarning kelinchagidir,
Bizga tuxfa – uning gulchechagidir.
Hech ham uzoqlashma biz bilan qolgin,
Go'zallikni chorla, ezgulik chaqir.*

*Muslima SHAMSIDDINOVA,
II pediatriya fakultetining
206-guruh talabasi.*

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lom qiladi:

DOTSENTLAR: Fakultet pediatriya; Fakultet bolalar xirurgiyasi; Ftiziatriya va pulmonologiya; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya.

KATTA O'QITUVCHILAR: Umumiy xirurgiya

ASSISTENTLAR: Neonatologiya; Neyroxirurgiya va bolalar neyroxirurgiyasi; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Oilaviy shifokor №2; Klinik farmakologiya; Xirurgik kasalliklari; Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil qilish va boshqarish.

**Tanlov muddati – e'lom chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.
Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 08.04.2022.**

<p>PEDIATR TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТИТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, Nashr uchun mas'ul: Sh. Abdushoshimova</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinnbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxtatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p> <p>"XALQ NASHRIYOTI" XKda chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Qorasoroy ko'chasi, 316 uy. Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nusxa, qog'oz bichimi A3.</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
--	--	--	---